O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

BD-5110600 – 4.01

2017-yil "18" 08

maxsus ta'lim

"24" 06

# ARXEOLOGIYA

fan dasturi

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Bakalavriat yo'nalishi: 5110600 - Tarix o'qitish metodikasi

TOSHKENT – 2017

---

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil "24" 08 dagi 603"-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2017-yil "18" 08 dagi "4". - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Egamberdiyeva N.A.** Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi va tarix o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

**Tursunov R.** O'zbekiston Milliy universiteti Jahon tarixi kafedrasi dossenti vazifasini bajaruvchi, tarix fanlari nomzodi.

**Abdalniyozov X.** Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti qoshidagi AL tarix o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2017-yil "25" 06 dagi "11"-sonli bayonnoma).

## I. O`quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o`rni

Ushbu dasturda "Arxeologiya" fani predmeti, maqsad va vazifalari, moddiy va ma'naviy madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar taraqqiyotining ilmiy vaamaliy ahamiyati kabi masalalar ochib beriladi.

Shuningdek, dasturda tarixning hali yozuv kashf etilmagan va yozma manbalar asosida yoritish mumkin bo'lmagan davrlarini arxeologik manbalar asosida organish, shuningdek dunyodagi qadimiy sivilizasiyalarning rivojlanishi, eng qadimgi tarixni davrlashtirish masalalari, kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, odamzodning dastlabki mehnat qurollari, mashg'ulotlari, makonlari, uning qadimgi davr, o'rta asrlar davri tarixi va madaniyatini o'rganish masalalari ilgari surilgan.

## II. O`quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanning maqsadi – tarixni, eng qadimgi davrlaridan to o'rta asrlargacha bo'lgan bosqichda rivojlanib borish jarayonlarini, muhim ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va etno-madaniy hayotga doir tafsilotlarini moddiy manba materiallari asosida talabalarga tushuntirish orqali ularda moziyga hurmat, Ona-Vatan va uning xalqiga mehr-muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va yosh avlod onggi, dunyoqarashida bu tuyg'ularni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – jahon xalqlari, shuningdek, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixini moddiy manba ob'ektlari-arxeologik yodgorliklar: ilk odamlarning yashagan g'or va ungurlari, ko'l va daryo irmoqlari bo'yida qad ko'targan ibtidoiy jamoa davri maskan va manzilgohlari, qadimgi qishloq va shahar harobalari, mozor-qo'rg'on va ibodatxona qoldiqlari, qadimgi irrigaciya inshootlari va me'moriy ob'ektlarda arxeologik qazishmalar o'tkazish jarayonida to'plangan boy ashyoviy dalillar-arxeologik materiallarning tavsifi va ilmiy taxlili asosida yaratilgan tarix haqida, ajdodlarimizning madaniy merosi va mafkuraviy dunyosi haqida talabalarga chuqur bilim berishdan iborat.

Arxeologiya fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- arxeologiyaning tarix fanini tarkibiy qismi sifatida shakllanishi va rivojlanishi;
- arxeologik yodgorliklar va ularning turlari;
- arxeologik tadqiqot uslubiyati;
- arxeologik madaniy qatlam;
- arxeologik sana va davrlash;
- arxeologiya fanining gumanitar va tabiiy fanlar bilan aloqalari;
- arxeologik tadqiqotlar bilan bog'liq eng yirik kashfiyotlar va ularning jahon tarixi va madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati;
- O'zbekistonda arxeologiya fanining taraqqiyot bosqichlari;
- hozirgi bosqichda arxeologiya fani oldida turgan vazifalar va muammolar **to'g'risida bilimga ega bo'lishi;**



- O'zbekiston tarixini davrlashtirishning prinsiplari va yangicha qarashlar, odamning paydo bo'lishi muammosi va uning yechimi masalasida yangicha yondashuvlar;
- O'zbekiston hududi eng qadimgi ajdodlar vatani va «Ferganträp» masalasi;
- diniy tasavvurlar - dinning paydo bo'lishi va ularning arxeologik ob'ekt va materiallarda aks etishi;
- O'zbekistonda eng qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi va ularning arxeologik ob'ekt va materiallarda aks etishi **bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi kerak;**
- O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilk diniy tasavvurlar va ilk shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi;
- ilk davlat uyushmalarining shakllanish shart-sharoitlari haqida;
- o'zbek xalqi qadimgi va o'rta asrlar davri tarixini moddiy manba ob'ektlari-arxeologik yodgorliklar;
- ashyoviy dalillarning ilmiy tahlili asosidagi ma'lumotlarga tayanib pedagogik faoliyatni tashkil etish bo'yicha malakaga ega bo'lishi lozim.

## I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### 1-modul. Arxeologiya fani va uning vazifalari

**1-mavzu. Arxeologiyaning tarix fanini tarkibiy qismi sifatida shakllanishi va rivojlanishi.**
Arxeologik va yozma manbalar o'rtasidagi farq. Arxeologik yodgorliklar va ularning turlari. Arxeologik tadqiqot uslubiyati. Arxeologik madaniy qatlam. Arxeologik sana va davrlash. Tarixiy vaarxeologik davrlashtirishning o'zigaxos xususiyatlari. Arxeologiya fanining gumanitar va tabiiy fanlar bilan aloqalari.

**2-mavzu. O'zbekistonda arxeologiya fanining taraqqiyot bosqichlari.**
Hozirgi bosqichda arxeologiya fani oldida turgan vazifalar va muammolar. Arxeologik tadqiqotlar bilan bog'liq eng yirik kashfiyotlar va ularning jahon tarixi va madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati.

### 2-modul. Paleolit davri va uning o'rganilishi

**3-mavzu. Paleolit davrining bosqichlari.**

Paleolit so'zi ma'nosi, sanasi. Paleolit davrining bosqichlari. Paleolit davri va uning o'rganilishi. Insoniyat tomonidan yer yuzining o'zlashtirilishi. Kishilik tarixining Olduvay bosqichi. Ashel davri. Tosh qurollari. Kertma texnikaSelungur O'rta Osiyodagi eng qadimgi ajdodlar manzilgohi. Ferganatrop. Ko'lbuloq makoni. Must'e bosqichi. Teshiktosh must'e davrining noyob yodgorligi. Obirahmat g'or makoni. Obirahmat-2004 odami, Xo'jakent manzilgohi, Omonqo'ton g'or makoni, Takalisoy g'ori. Qo'tirbuloq makoni. Zirabuloq makoni. Go'rdara g'or makoni. Qopchig'ay ustaxonasi. Uchtut yodgorligi. Diniy tasavvurlarning ilk ko'rinishi. Yuqori paleolit. Tabiiy iqlimning o'zgarishi. Bu

o'simliklar dunyosi. Yuqori paleolit davri odamlari hayotida yuz bergan buyuk o'zgarishlar va ibtidoiy jamoatchilik tarixining boshlanishi. Yuqori paleolit davri yodgorliklari. Samarqand makoni, Siyobcha qarorgohi,Xo'jamazgil qarorgohi, Bo'zsuv. Uzoq Sharq va janubiy-sharqiy Osiyo tosh davri yodgorliklari.

**3-modul. Mezolit davri va uning o'rganilishi**

**4-mavzu. Mezolit davrining bosqichlari.**

Mezolit so'zi ma'nosi, sanasi. Azil,Tardenuaz. Mezolit davrida tabiiy iqlim sharoiti. Mezolit davrida yuz bergan buyuk kashfiyotlar. O'q-yoy,mikrolit qurollar. Urug'chilik tuzumi vaaholining turmush tarzi. Mezolit davri yodgorliklari xarakteristkasi. Ko'shilish, Obishir, Machay, Ayrtom yodgorligi. Ilk mezolit davri yodgorligi - Qo'shilish makoni. Obishir I vaObishir V g'or–makonlari. Machay g'or makoni mezolitning so'nggi bosqichigaoid yodgorlik. Mezolit davri mehnat qurollari. O'q-yoyning kashf etilishi. Mezolit davrida tasviriy san'at. Qoya tosh suratlari va ularning diniy, ma'rifiy va ilk estetik tasavvurlar ob'ekti ekanligi. Evropa, Afrika va Osiyo xududida mezolit.

**4-modul. Neolit davri va uning o'rganilishi**

**5-mavzu. Neolit davrining bosqichlari.**

Neolit so'zi ma'nosi, sanasi. Neolit davri va uning o'zigaxos xususiyatlari. Neolit davrida jamiyatlar har xil taraqqiyot darajalarida bo'lganlar . "Neolit inqilobi"- dehqonchilik va chorvachilik. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik.Tosh qurollari va ularning ishlash texnikasi - silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash. Makrolit qurollar. Mehnat qurollari va ularning turlari. Neolit davri aholisi xo'jaliligi. Kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik. O'rta Osiyoda neolit davri jamoasi rivojlanishining 2 xil ko'rinishi. Joytun madaniyati. Kaltaminor madaniyati. Kaltaminor madaniyati yodgorliklarining bosqichlari. Hisor madaniyati,Daryolisoy yodgorliklari, Jonbos-4 makoni, Tolstov manzilgohi,Tumek-kichidjik qabrstoni,Darvozaqir I makoni, Sazag'on madaniyati,Markaziy Farg'ona neolit yodgorliklari. Uchtut shaxtasi. Evropa, Afrika va Osiyo xududida neolit.

Shumerlar madaniyati. Qadimgi Hindiston ilk, o'rta va rivojlangan podsholik davri.

**5-modul. Eneolit davri xususiyatlari**

**6-mavzu. Misning kashf etilishi va undan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi.**

Eneolit so'zi ma'nosi, sanasi. Mehnat qurollari ishlab chiqarishda metallning kashf etilishi. Eneolit (mis-tosh) davrining boshlanishi. Ilk metall buyumlar. Misga ishlov berishning 4 bosqichi. Ishlab chiqarishgaasoslangan eneolit davri jamoalari xo'jaligida inqilobiy o'zgarishlar. Hunarmandchilik va uning tarmoqlari. O'rtaOsiyoda eneolit davri yodgorliklari. Eneolit davri yodgorliklarining davrlashtirish. Nomozgoh-1-ilk eneolit davri, Namozgoh-2–o'rta eneolit davri, Namozgoh-3-so'nggi eneolit davri yodgorligi. Zarafshon



o'rta eneolit davri. Namozgoh-3-so'nggi eneolit davri yodgorligi. Zarafshon vohasida joylashgan eneolit davri yodgorliklari; Sarazm va Zamonbobo madaniyatlari. Mesopotamiyada shahar madaniyatining vujudga kelishi (shahar-davlatlar Kish, Lagash, Nippur, Ur, Mari shahar davlatlari). Evropa, Afrika va Osiyo xududida eneolit.

**6-modul. Bronza davri va uning o'rganilishi**

**7-mavzu. Bronzaning kashf etilishi.**

O'rtaOsiyoda dehqonchilik vaxonaki chorvachilikning rivojlanishi. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti. Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i. Dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi. Sopollitepa va Jarqo'ton. Ilk shaxar. Ilk davlatchilik belgilari. Hunarmandchilik va uning tarmoqlari. Zardushtiylik dinining ilk ko'rinishlari. Ko'mish marosimlar va urf-odatlar. Amudaryoning quyi oqimida bronza davri madaniyati.Bronza davridagi cho'l zonasi qabilalari. Tozabog'yob, Qayroqqum va Suvyorgan madaniyatlari va ularning kelib chiqish. Andronova madaniyati.Mesopotamiyaning bronza davri shaharlari. Mezoamerikaarxeologik yodgorliklarining o'rganilishi. Inklar madaniyatining o'zigaxos xususiyatlari. Kusko, Kotos va bq.Evropa, Afrika va Osiyo xududida bronza davri.

**7-modul. So'ngi bronza va ilk temir davri**

**8-mavzu. So'nggi bronza va ilk temir davriga O'zbekistonda o'troq dehqonchilik madaniyati.**

Zarafshon va Qashqadaryo hududida Sug'diyona, Amudaryoning quyi oqimidaXorazm, Sirdaryoning yuqori havzasida qadimgi Farg'ona va uning o'rtaoqimida Choch dehqonchilik madaniyatlari markazlari.

Temirning kashf etilishi va jahon madaniyatini rivojlanishidagi ahamiyati. Dam berish usuli.Bosqonli qo'ra. Dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi. Qadimgi XorazmdaAmirabod madaniyati. Qadimgi Farg'onada Chust madaniyati. Dehqonchilik, chorvachilik vaxunarmandchilik turlari. Chust madaniyatining o'zigaxos xususiyatlari. Elatan madaniyati. Toshkent vohasida Burgulyuk madaniyati. Baqtriyada Kuchuktepa. Mirshodi makoni.Qiziltepa kabi so'nggi bronza davri va ilk temir davri yodgorliklari. Sug'dda bronza va ilk temir davri yodgorliklari. Ko'chmanchi chorvador qabilalarning dehqonchilik vohalariga kirib kelishi. Evropa, Afrika va Osiyoilk temir davriga.

**8-modul. Qadimgi davr madaniyati**

**9-mavzu. Qadimgi davrining bosqichlari.**

Qadimgi davr madaniyatining o'zigaxos xususiyatlari. Axmoniylar madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ta'siri. Gretciya va Rim madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ta'siri. Dehqonchilikning rivoji. Omoch va so'qa. Qo'l tegirmoni. Sopol buyumlari ishlash texnikasi. Amfora,pifos. Shisha buyumlari ishlab

chiqarish.Yunonlar va rimliklarda kitoblar. Papirus va pergament. Derazaoyna ixtirosi. O'rtaOsiyoning arxaik davr arxeologik yodgorliklari. O'rtaOsiyoda ilk davlatlar. Qadimgi Xorazm yodgorliklari - Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Oybuyirqal'a va Dingilji qo'rg'onlari. Arxaik davrda Surxondaryo yodgorliklari - Bandixon, Qiziltepa, Kuchuktepa, Qashqadaryo yodgorliklari - Daratepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir yodgorliklari.Amudaryo xazinasi.

O'rtaOsiyoda ellinizm. Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, Farg'ona, Choch va Iloqdaantik davr shahar va qishloqlari. Shahar me'morchiligi. Hunarmandchilik taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. San'at, diniy e'tqodlar va ularning aholi turmush tarzidaaks etishi. Skif va saklar madaniyati.Evropa, Afrika va Osiyoqadimgidavriga.

## 9-modul. O'rta asrlar davri madaniyati

**10-mavzu. Ilk o'rtaasrlar davrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarning arxeologik yodgorliklardaaks etishi.**

Ilk o'rtaasrlardayer egaligining vujudga kelishi. Ko'shklar.Xunarmandchilik; kulolchilik va shishasozlik, to'qimachilik, metallsozlik, zargarlik, duradgorlik. Ichki va tashqi savdo. Ilk o'rtaasrlarda shahar hunarmandchiligi. Mingo'rik, Shoxruxiya, Chilonzor Oqtepasi, Yunusobod Oqtepasi,Varaxsha, Panjikent. Koroplastika.

Rivojlangan o'rtaasrlar davri shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi. Quva. Hunarmandchilikning turli yo'nalishlarida ishlab chiqarishni tashkil etish va ixtisoslashish jarayoni. Rivojlangan o'rtaasrlar davrida tovar-pul munosabatlari. Islom dinining shahar me'morchiligiga ta'siri; masjidlar, minoralar, maqbara, karvon saroy, sardoba, xonaqoh va boshqalar. Shahar obodonchiligi va bozorlar. Hunarmandchilik va kulolchilikda yangi izlanishlar. Ismoil Somoniy maqbarasi. Arab–ota maqbarasi. Jarqo'ton minorasi. Vobkent minorasi. Raboti Malik kavon saroyi. Temuriylar davrida madaniy taraqqiyot. Shaharsozlik va hunarmandchilik. Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy.Oq saroy. Ulug'bek rasadxonasi. Bibixonim masjidi. Shohi Zinda. O'rtaasrlarda Yevropa va Rossiya. Olonlar. Vladimir–Suzdal. Moskva.Evropa, Afrika va Osiyo.

## II. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra–professor o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yichaolgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlar jarayonida yanada boyitadilar. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talabalarda qo'shimcha ilmiy adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalanaolish ko'nikmalari va o'z fikrini mustaqil ifoda etaolish qobiliyatlari shakllanadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida pedagogik amaliyotga ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalardan "Aqliy xujum", "Insert", "Qanday", "Fikrlar xujumi", "Klaster" metodi, "Bumerang", "Charxpalak", "Blits so'rov", "Yelpig'ich" texnologiyasi va boshqalardan foydalaniladi. Bundan tashqari pedagogik jarayon



natijalarini xolisona baholash uchun test usuli, reyting tizimi, talabaning bilim va ko'nikmalarini egallash jarayonini nazorat etish maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari

1. Rossiya arxeologiyasi.
2. Yevropa arxeologiyasi.
3. Amerika arxeologiyasi.
4. Sharqiy va janubiy Osiyo arxeologiyasi.
5. Afrika arxeologiyasi.

## III. Seminar mahsg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Arxeologiya" fanidan ma'ruza darslaridaolgan nazariy bilimlarini mustahkam bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimchaadabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi. Shuningdek, seminar darslaridapedagogik amaliyotga ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalardan "Aqliy xujum", "Insert", "Qanday", "Fikrlar xujumi", "Klaster" metodi, "Bumerang", "Charxpalak", "Blits so'rov", "Yelpig'ich" texnologiyasi va boshqalar foydalanish mumkin. Bundan tashqari pedagogik jarayon natijalarini xolisona baholash uchun test usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari va rejalari**

**Paleolit davri va uning o'rganilishi**

1. Ilk paleolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'rta paleolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. So'nggi paleolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'zbekistonda paleolit davri yodgorliklari.

**Mezolit davri va uning o'rganilishi**

1. Mezolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari,
2. O'zbekistonda mezolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.
3. Ko'shilish, Obishir, Machay yodgorliklari.

**Neolit davri va uning o'rganilishi**

1. Neolit davri va uning bosqichlari.
2. Dehqonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi va rivojlanishi.
3. Joytun, Kaltaminor madaniyati va uning bosqichlari.
4. Qoyatosh suratlar va ularda ifoda etilgan diniy tasavvurlar.

**Eneolit davri xususiyatlari**

1. Ilk eneolit davri xususiyatlari
2. O'rta va so'nggi eneolit davri xususiyatlari.
3. Sarazm madaniyati
4. O'zbekistonda eneolit davri yodgorliklari.

**Bronza davri va uning o'rganilishi**

1. Bronza davri xususiyatlari
2. Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorligi
3. So'nggi bronza davri yodgorliklari
4. Ilk temir davri xususiyatlari
5. Yevropa va Osiyodagi bronza davri yodgorliklari

**Qadimgi davr madaniyati**

1. Qadimgi davr madaniyatining o'zigaxos xususiyatlari
2. Qadimgi Gretsiya va Rim madaniyati
3. Qadimgi Xorazm yodgorliklari va ularning o'rganilishi
4. Qadimgi Farg'ona yodgorliklari
5. Kushonlar davri yodgorliklari
6. Skiflar madaniyati

**O'rta asrlar davri madaniyati**

1. Ilk O'rta madaniyatining o'zigaxos xususiyatlari
2. Qanqa yodgorligi
3. Ilk o'rtaasrlarda monumental tasviriy san'at
4. Quva yodgorligi
5. Temuriylar davrida madaniy taraqqiyot
6. Temuriylar davri me'morchiligi
7. O'rtaasrlarda Yevropa va rus me'morchiligining o'zigaxos tomonlari

**IV. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.**

Laboratoriya ishlarida talabalar arxeologik ekspeditsiyaning ish faoliyatlari bilan tanishish, arxeologik ashyolarni taxlil etish va tadqiq qilish kabi amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

**Laboratoriya mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari**

**Arxeologik topilmalarning yoshini aniqlash uslublari**

Absolyut va nisbiy yosh. Radiouglerod uslub. Petrografik taxlil, agrobiologik taxlil, madaniyatlararo tarqalgan ashyolar yordamida yodgorliklikIarning yoshini aniqlash uslubi.

**Arxeologik razvetka turlari**

Razvetka ishlari maqsadi. Razvetka ishlariga tayyorgarlik. Razvetka turlari. Qidiruv. Manzilgohlarni izlash uslublari. Aviarazvetka. Razvetkaning geofizik uslublari. Suv osti razvetkalari.

**Madaniy qatlam va uning tadqiq qilish uslublari**

Bir qatlamli va ko'pqatlamli yodgorliklar. Qazishma ishlari bilan bog'liq asosiy ko'rsatmalar, madaniy qatlamlar sxematik belgilash uslublari. Qadimgi qabr va qo'rg'onlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari

**Tosh qurollarining ishlanish uslublari**

Kertma texnika, yorma texnika, mikrolitlar ularning turlari, ishlanish eslublari taxlil etiladi.

**Sopol buyumlar va ularning ishlanish uslublari**



Sopol buyumlarning ixtiro qilinishi. Ularning turlari.Sopol buyumlar ishlanishining o'zigaxosligi.

**V.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Arxeologiya fanidan nazariy vaamaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni taxlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ishning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Arxeologik ekspedisiyalar va ularning faoliyati.
2. Tosh qurollari va ularning ishlanish uslublari.
3. Qoya tosh suratlari, ularning mohiyati va ishlanish uslublari.
4. Mezolit davri yodgorliklari.
5. Neolit va encolit davri yodgorliklari.
6. Bronza davri yodgorliklari.
7. So'nggi bronza davri yodgorliklari.
8. Ilk temir davri yodgorliklari.
9. O'zbekiston xududidagi ilk shaxarlar.
10. Qadimgi davr madaniyati va uning rivojlanish xususiyatlari.
11. O'rtaasrlar davri madaniyati.
12. Temuriylar davri madaniyati.

**VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**


**Asosiy adabiyotlar:**

1. Сагдуллаев А.Кадимги Ўрта Осиё тарихи. –Т.: 2004.
2. Egamberdieva N., Arxeologiya ( o'quv qo'llanma). –T.: "Fan va texnologiya" 2011.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутк / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
2. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Танкидий тахлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир рахбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017

йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

3. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабр /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – 48 б.
4. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган. /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: : "Ўзбекистон", 2017. – 488 б.
5. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида. *(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)*
6. Анорбоев А. Исломов Ў. Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. —Т.: "Фан", 2000.
7. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart.A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present.W. W. Norton & Company, Inc, New York,2011.
8. Аскаров А. Энг қадимий шаҳар. —Т.: "Фан", 2001
9. Галперина Г.А., Доброва Е.В., Популярная история археологии. –М.: "Высшая школа", 2002.
10. Мартинов А.И. Шер Я.А. Методы археологического исследования, –М.:"Высшая школа", 2002.
11. Малиничев Г. Археология по следам легенды и мифов. –М.: "Вече", 2006.
12. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т.: "Фан", 2007
13. Матюшин Г.Н. Археологический словар. –М.: "Вече", 1996
14. Эгамбердиева Н. Археология ( методик қўлланма). –Т.: "Университет",2008.
15. T. Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology,2016.